



2023 YIL DAVOMIDA TURIZM SOHASIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR

Shukurov Ikrom Abdurashitovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Oliy matematika" kafedrasiga qarab o'qituvchisi.

ikrom.shukurov@mail.ru, +99897-0015175

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2023 yil davomida turizm sohasida erishilgan natijalar va ushbu natijalardan kelib chiqib sohada amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar haqida so'z yuritilgan. Maqolada turizmning barcha sohalari rivojlanish tendensiyalari haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, tashqi turizm, agroturizm, sayyoqlik, gastronomic turizm, ziyorat turizmi.

Yurtimizda, xususan Samarqand viloyatida turizmning qaysi yo'naliishlari ko'proq ommalashdi, mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati qanday o'zgardi va kelgusi yilda sohada nimalar kutilayapti?

Yurtimizdagi turizm tendensiyalari boshlab pandemiya, keyin esa jahondagi notinchliklar, xususan Ukrainianadagi urush tufayli yaqinda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan sayohatchilarning istaklari va ehtiyojlari bilan shakllanmoqda.

Turizm sohasi mutaxassislarining fikricha, sohadagi hozirgi vaziyat ancha qaltis. Ayrim mamlakatlar bilan nima sodir bo'lishi, rivojlanish chizig'i qayerga siljishi va nimaga tayyor bo'lish kerakligi hozircha noma'lum. Shu bilan birga, sayohatga bo'lgan munosabat o'zgarmadi va odamlar reyslar va mehmonxonalarni bron qilishda davom etishmoqda[1].

Lekin ular tanlashda to'g'ridan-to'g'ri reyslar mavjudligiga, vizasiz rejimga va ba'zi joylarda karantin cheklovlariga tobora ko'proq e'tibor berishmoqda.

Shu borada malakatimizda turizmning tendensiyalari haqidagi fiklarni keltirib o'tamiz.

Ichki turizmning tobora ommalashib borishi ehtimol, bu yilning asosiy tendensiyasi bo'lishi mumkin. Sababi k'pchilik dam olish kunlari safarlar va uyga yaqin ikki yoki uch kunlik qisqa sayohatlarning go'zalligini his qildi. Bundan uch-to'rt yil avval kimdir noyabrda toqqa vhiqishini tasavvur qilish qiyin edi. Bu yil noyabr oyining yomg'irli dam olish kunlarida ham Chorvoq-Chimyon hududlari yo'naliishidagi avtomobil yo'llarida tirbandliklar kuzatildi.

Unga ko'ra, hozirda tog'li hududlarda dam olish uchun joylar - kanat yo'li, restoranlar, dala hovli, mehmonxonalar va dam olish maskanlari yetarli.

Kirish turizmi uchun 2023 yilda Rossiyadan sayyoohlarning barqaror oqimi shakllandi. Talabning bu keskin o'sishi O'zbekistonning o'ziga emas, balki tashqi siyosiy sabablarga asoslanadi. Demak sohadagi erishilgan yutuqlar bilan to'xtab qolmasligimiz kerak.

Haqiqiy ekskursiyalar uchun bugun O'zbekistonga qiziqish, hattoki, mamlakatning eng chekka hududlariga sayohat har qachongidan ham ortgan. Ichki sayohatlarning faollashishi birinchi karantin cheklovlar olib tashlangan paytdan boshlangan. Pandemiya sabab ko'pgina davlatlarning chegaralari yopildi va odatiy xorijiy sayohatlar to'xtatildi. Shunga ko'ra, talab vektori ichki turizmga o'tdi[2].



Gid va agentliklarning ta'kidlashicha, sayyoohlar mahalliy madaniyat, oshxonalar, g'ayrioddiy va hatto mistik joylar haqida ma'lumot so'rashlari tobora ortib borayabdi.

2023 yil davomida gastronomiya O'zbekistonni sevish uchun yana bir sabab bo'ldi. Sayyoohlar orasida eng qadimiy va saqlanib qolgan retseptlar bo'yicha hozirgacha taom tayyorlayotgan viloyat va joylarni ko'rsatishni so'rashadi. Gastronomik turlar turli joylar bilan o'z o'rnini saqlab kelmoqda. Bular doirasida sayyoohlar chekka qishloqlar, vinochilik korxonalari, turli sanoat va fermer xo'jaliklariga tashrif buyurishmoqda. Milliy mahsulotlardan va an'anaviy ichimliklardan tatib ko'rib, bozorlar va boshqa joylarni ham kezishmoqda.

Turistlar uzumzorlar, vino zavodlariga tashrif buyurishib, vino ta'tib ko'rish, hosil yig'im-terimida qatnashish, asalarichilik fermasi yoki pishloq zavodlariga sayohatlar uyushtirishmoqda. Agroturizm sohasi yangi tendensiyadir, endigina ilk qadamlarini tashlamoqda. Shu bilan birga, agroturizm nafaqat sigir va fermalariga borish, balki bu yil tashrif buyuruvchilari yuqori bo'lgan ot klublari, bug'u va tuyaqush fermalarini ham borib ko'rish istagidalar. Bugungi kunda har kim yirik qishloq xo'jaligi korxonasi hududida qulay xonalarda yashashi, ot minishni o'rganishi, eko-yo'llar bo'ylab yurishi, haqiqiy o'tovda yashashi va hatto uni yig'ishni o'rganishi, ovda qatnashishi yoki baliq fermasida yashashi mumkin[3].

Ziyorat turizmi bo'yicha Saudiya Arabistoniga umra safari bugungi kunda juda mashhur. Bu tendensiya hech qachon o'z o'rnini yo'qotmasa kerak. Bundan tashqari reyslar soni oshob bormoqda. Agar sayohatchilar mehmonxonada qolishlari kerak bo'lsa, ular uchun ko'rsatiladigan xizmatlar doirasi va mehmonxona reytingi ikkinchi o'rinda turadi. Tanlovga ta'sir qiluvchi muhimroq omillar bu ziyorat safarining jadvali va dasturi hisoblanadi. Ko'pincha, ziyoratchi uchun ekskursiyaning narxi uning natijalaridan kamroq ahamiyatga ega bo'ladi.

Pandemiya oqibatlari turizm sohasidagi iste'molchilarining didi va tanlov ustuvorliklariga ta'sir qildi. Asta-sekin yo'nalishni o'zgartirish yangi - yoqimli va foydaliligi bilan birlashtirilgan tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi tendensiyasiga olib keldi. Ammo turlar faqat sanatoriylar haqida emas, balki sog'lomlashtirish bilan birgalikda zamonaviy dam olish maskanalri bilan boyitildi. Bundan tashqari, jismoniy va ruhiy davolanish ham sog'lomlashtirish turizmida muhim o'rin tutmoqda. Bu borada talab doimiy o'sib boradi, natijada biznes uchun ajiyib qulayliklar yaratiladi.

Yolg'iz sayohat qilishda erkinlik va inson o'zi uchun sayohat qilish istagi ortib bormoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mamlakatda bunday sayohatni ma'qul ko'ruchilar soni ko'payadi. Bu yil yakkaxon sayohatchilar soni sezilarli darajada oshdi. Buni bir kishilik xonalarni bron qilish statistikasi tasdiqlaydi. Onlayn sayohat agentliklari kanallari va meta-qidiruv mexanizmlari tobora kuchayib bormoqda. Shuning uchun turizm sohasidagi biznes yurituvchi korxonalar trendda bo'lishi maqsadfa muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.S.To'xliyev. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. SamISI. 2021 yil.
2. Z.Raximov, Sh.Abdurasulov. Turistik distinatsiyalarni loyihalashtirish. Darslik. SamISI. 2023 yil.



3. Sh.Abdurasulov. Turizm rivojlanishi sharoitida “ekologik turizm” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari. Srvis ilmiy-amaliy jurnali. 2023 yil 2-son. 102-bet.